

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH KITOBIDA BERILGAN SHE'RLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yusupova Dilorom Xashimovna

Andijon shahar 17- umumiy o'rta ta'lim maktabi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish kitobida berilgan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari taxlil qilindi.

Kalit so'zlar: ma'naviy xurujlar, ma'naviy- axloqiy yo'nalishlar, immunitetni shakllantirish, sh'er, individual va shaxslik fazilatlar.

KIRISH

Bolalar tarbiyasi asosan ota-onalar va tarbiyachilar tomondan oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan mutloqo bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay, bizni qurshagan olamni tezroq bilib olishga uning sirlarni o'rganishga intiladilar. Unda oilada ota-onalar, bog'chalarda esa tarbiyachilar, maktabda esa o'qituvchilar yaqinda yordam beradilar, ya'ni ular badiiy asarlardan parchalar o'qishni, mazmun va mohiyatini tushunishni o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida yuzdan ortiq shoirlarning ko'plab xilma-xil mavzulardagi she'rlari berilgan. Albatta, ularning har biridan ulug' maqsadlar ko'zlangan. Chunki sh'er ham, avvalo, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni o'z mohiyatiga ko'ra jo'shqin daryoga qiyos qilsa bo'ladi. Daryo suvlaridan dalalar, dov-daraxtlar gullab-yashnasa, adabiyot inson qalbiga ezgulik urug'ini sepadi, uni hayotda to'g'ri yashashga, ulug' maqsadlar yo'lida kurashishga o'rgatadi. Daryo irmoqlardan vujudga keladi. Adabiyotimiz irmoqlari esa adiblarimiz yaratgan asarlardan iborat. Daryolarning sersuvligi, hayqirib oqishi irmoqlar suviga bog'liq bo'lgani singari, adabiyotning jo'shqinligi, kurashchanligi

– hayotda tutgan o'rni undagi asarlarning sifatiga qarab belgilanadi. Shunga ko'ra adabiyot ta'limi o'z oldiga bir qator maqsadlarni qo'yadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi adabiy ta'lim asosan sof ilmiy maqsadlarni emas, balki ma'naviy-

axloqiy yoʻnalishlar ustuvorligini koʻzda tutadi.

Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- oʻquvchilarning yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan ragʻbat, mehr va muhabbat uygʻotish;
- ularni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-maʼrifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- ularning boy maʼnaviy dunyosini shakllantirish;
- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini oʻrganish asosida oʻquvchida tanqidiy fikrlashga oid koʻnikma va malakalarni hosil qilish;
- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;
- ularda har qanday maʼnaviy xurujlarga nisbatan sogʻlom va baquvvat eʼtiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;
- soʻz sanʼati vositasida oʻquvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy darsturda, «Taʼlim toʻgʻrisida» qabul qilingan Qonunda bola tarbiyasi asosiy masala qilib qoʻyilgan. Bolalar tarbiyasi asosan ota- onalar va tarbiyachilar tomonidan oshiriladi. Hali oʻqish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan mutloqo bexabar boʻladilar. Shunga qaramay, bizni qurshagan olamni tezroq bilib olishga uning sirlarni oʻrganishga intiladilar. Unda oilada ota-onalar, bogʻchalarda esa tarbiyachilar, maktabda esa oʻqituvchilar yaqindan yordam beradilar, yaʼni ular badiiy asarlardan parchalab oʻqishni, mazmun va mohiyatini tushunishni oʻrganadilar. Badiiy kitoblarning rasmlarini rang-barang harflarini oʻqish oʻrganishga muvaffaq boʻladilar. Ulgʻayib ketayotgan yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashda kattalar adabiyotining ajralmas bir boʻlagi boʻlgan bolalar adabiyotining ham ahamiyati katta. Bolalar adabiyoti oʻz oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sogʻlom, iymon-eʼtiqodi butun, bilimi maʼnaviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni

tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani quyganligi bilan ajralib turadi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Zotan xalqning bir bo'ladi sanalgan bu yosh avlod sal fursat ichida voyaga yetib ulg'ayib qoladi. Shuning uchun ham bu avlodga alohida e'tibor va hurmat bilan qarash lozim. Bolalar uchun beriladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur uy-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilxomlantirishi zarur.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarga hamohang g'oya, maqsad va tushuncha «Kadrlar tayyorlash milliy dastur» hamda «Ta'lim to'g'risida» Qonunda o'z ifodasini topgan. demak, shunday ekan, tarbiyachilar, murabbiy va o'qituvchi ustozlarning, shoir va adib, olim va adabiyotshunoslarning oldida turgan eng asosiy vazifa yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashdir. Yoshlarda milliy g'urur tushunchasini shakllantirish, tarix sahnasida chaqnagan ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat yulduzlarining asarlarini o'rgatish va shu e'tiqod asosida tarbiyalab voyaga yetkazish muhim ishdir.

Mustaqillik yillari mamlakatimiz ta'lim tizimida farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash maqsadida "Talim to'g'risida" gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ta'limning har bir bosqichida islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

2004-yil esa Respublikamizda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha muhim xujjatlar qabul qilingan yil sifatida yodimizda qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-2009- yillarda maktab ta'limini rivojlantirish. "Davlat Umummilliy Dasturi to'g'risi" dagi farmoni va ushbu farmon asosida qabul qilingan qarorlarida maktablarimizning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda uzluksiz ta'limining yagona tizimini shakllantirish bilan bog'liq ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bugun ushbu farmon talablarini bajarish bo'yicha joylarda keng ko'lamli sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Ta'lim tizimi islohotiga doir chiqarilgan farmon va qarorlar xalq ta'limi hodimlari, jumladan boshlang'ich ta'lim mutahassislariga ham ma'sulyatli vazifalarni yukladi.

Boshlang'ich ta'limni takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri xisoblanadi. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim fanlari orqali o'quvchilarning umuminsoniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi. Ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini dunyo qarashini, o'z-o'zini anglash, jismoniy sog'lom bo'lishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirishga, mamlakatimiz boyliklarini ko'z-qorachig'iday asrashga, tabiatga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchi maktabga kelgan dastlabki kundan boshlab o'qishga havas qo'yishi savodli o'qishi, dastlabki amallarni to'g'ri bajarishga o'rgatishi kerak. O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlar tarkibida amalga oshiriladi., lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishini, psixologiyasini hisobga olish zarur. Ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni olib kirish va eng zamonaviy, takomillashgan o'qitish usullarini qo'llagan holda yuqori samaraga erishish bugungi kunning oldidagi dolzarb vazifalaridan biridir. O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamaganidek, o'qib charchaganini sezmaydi. O'qishga qiziqmaydigan, darslarga kelib-kelmaydigan o'quvchilar ham o'yinga qiziqadi. Darslarda turli o'yin mashg'ulotlarini tashkil etish bu o'quvchilarda ham qiziqish uyg'otadi.

O'quv materialini hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish, bolani o'qish mashg'ulotidan bezdiradi. Natijada o'quvchilarda bo'sh o'zlashtirish va ulgirmovcilik sabablari yuzaga keladi.

O'qish fanlaridan bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun nimalarga alohida e'tibor qaratish lozim?

-Darslarda yangi pedagogik, zamonaviy texnologiyalar, noan'anaviy usullardan keng qo'llash;

-Ko'rgazmali, didaktik, test, tarqatma materiallaridan keng foydalanish;

-O'quvchilarga do'stona munosabatda bo'lish;

-O'qish sifati va samaradorligiga e'tibor berish;

- O`quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga orgatishda turli mashqlardan foydalanish;
- Nutq o`stirishga alohida e`tibor qaratish;
- Yanga axborot texnologiyalardan foydalanish;
- Lug`at ustuda ishlashga o`rgatish;
- Xalq og`zaki ijodidan foydalanish;
- “She`riyat gulshani”, “Ifodali o`qish” kabi to`garaklar tashkil etish;
- Bo`sh vaqtlarda ulgurmovchi o`quvchilar bilan alohida, yakka tartibda ish olib borish;
- Fanlar a`robogijlikka ahamiyat berish.

O`quvchilar bilishini nazorat qilib borishda albatta past o`zlashtirgan o`quvchiga alohida e`tibor qaratish lozim.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarni o`qishning bir necha turlari yani, ongli, tez, to`g`ri va ifodali o`qishga o`rgatib boriladi. O`qituvchi ongli tez, to`g`ri, ifodali o`qishga o`rganishda ulgurmayotgan o`quvchilar bilan qanday ishlar olib borish kerak?

To`g`ri o`qish tushinarli qilib xatosiz o`qishdir. Ma`lumki ayrim o`quvchilar ko`pincha ba`zi xarflarni tushurib, bog`inlar, so`zlarning o`rnini o`zgartirib o`qiydilar. Bunday xatolarga yo`l qo`ymasliklari uchun qiynalib o`qiydigan o`quvchilarga katta xajmdagi matnlarni qismlarga bo`lib o`qishni tavsiya qilish anchagina yengillik yaratadi. To`g`ri o`qishga o`rgatish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:

- dastlab 3-4 bo`g`inli so`zlarni o`qish , 5-6 bo`ginli so`zlarni esa bo`g`inlarga bo`lgan xolda o`qish;
- tanish matnlarni o`qitishda o`qish surati biroz oshiriladi. Shunday qilinganda bolalar notanish matnlarni ham tutilmay o`qish malakasiga ega bo`ladilar;
- to`g`ri o`qishni bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar o`zlashtirishi uchun tovush, bo`g`in va so`zlarni to`g`ri, aniq, sof talaffuz etish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, talaffuzda **p** yozuvda esa **b** yoziladigan so`zlarni to`g`ri o`qushga o`rgatish (oftob,serob); **r** tovushini **l**, **y** deb (bayroq,-bayloq,o`rtoq-o`ytoq) talaffuz etishlarining oldini olish uchun bunday so`zlar yo`zilgan ko`rgazmalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O`qish tezligini oshirish ancha murakkab jarayonlarini o`z ichiga oladi. Bola tez o`qiyman deb shoshiladi, natijada xatolarga yo`l qo`yadi. O`qituvchi bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarda yaxshi kayfiyat uyg`ota olishi, sinfda yaxshi muhit yaratishi, har bir bolada “To`g`ri va ravon o`qiy olaman” degan ishonchni uyg`otishi lozim.

Ongli o`qish jarayonida o`qilayotgan matnni tushunib, asosiy maqsadni uqib, asardagi ayrim o`z va ko`chma ma`noli so`zlarni izohlash, bunday so`zlar ishtirokida gaplar tuzish, tuzilgan gaplarni mazmun tomondan jamlab, kichik hikoya hosil qilish, matnning tugallangan qismidagi asosiy fikrni topish mashqlarini tez-tez o`tkazish, matndagi tabiat tasvirini, insonlarning yaxshi-yomon odatlarini misollar yordamida, asardagi voqealarga bog`lab gapirib berish maqsadga muvofiq. Qaysi ishlar yaxshi va ularga ergashish mumkin, qaysilari yomon, ulardan nafratlanish kerakligini izohlab berishni o`quvchilarga topsjiriq tariqasida tavsiya etish mumkin. O`quvhilar to`g`ri, ongli, tez o`qishni egallagan taqdirdagina ifodali o`qiy oladilar. Ifodali o`qishga o`rgatish, o`qishga o`rgatish bilan bir paytda amalga oshiriladi. Ifodali o`qishga ulgurmayotgan o`quvchilarga kichik misrali she`rlardan yod olishga topshiriq berish, kichik misradagi she`rdagi ohangga, tinish belgilariga alohida e`tibor bilan yod olish aytiladi.

Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi. bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilarni mustaqil ishlashga o`rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o`quvchilarida uyg`un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o`quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlari qanday turlari bo`lishi kerak? Avvalo, ish turlari o`qituvchi tomonidan puxta o`ylangan, ta`lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo`lishi kerak. Bunda har bir o`quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e`tibordan chetda qolmasligi kerak.

O`quvchilarni aqliy rivojlantirishning sitatlaridan biri topshiriqlarni to`la “eslab qolib” bajarishlaridir.

Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo`l qo`yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e`tibor beriladi.

O`quvchilarning topshiriqlarni tez, to`g`ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib, tayanch so`zlar tavsiya etish foydalidir. O`quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo`lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so`z boyligi yetarli emas.

Tajribalar shuni ko`rsatadiki, bolalar o`qituchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o`rganib qolmasliklari uchun ko`proq ularning o`zlarini mustaqil fikrlashga da`vat etish lozim. O`quvchilar e`tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo`ldi? Seningcha qanday bo`lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma`qullab, yana o`ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz! kabi rag`batlantiruvchi so`zlarni ishlatish foydalidir. Masalan, “O`roq va Kombayn” masalasi yuzasidan: O`roq nega afsuslanadi? Kombayn unga nima dedi? Kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga bolalar e`tiborini tortiladi, har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholashga o`rgatiladi.

XULOSA

Dastlabki bajargan mustaqil ishdan bola mamnun bo`lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi.

Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og`zaki yoki yozma tarzda bo`lishi mumkin.

Bola yozishidan oldin o`ylaydi, fikrini og`zaki jamlaydi, so`ng uni yozishga kirishadi. O`z fikrini bayon qilish, yo`l qo`yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritish uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og`zaki) nutq asosida paydo bo`ladi va mustahkamlanadi.

Masalan, o`quvchi o`z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o`ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o`z-o`zicha gapiradi (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni

o`qib, og`zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o`ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o`rtata`limning davlat standartlari va o`quv dasturi // O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining Axborotnomasi, 7-maxsus son. Toshkent. «Sharq», 1999.
2. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha Yangi tahrirdagi davlat ta`lim standarti «Boshlang`ich ta`lim». Jurnal. Toshkent, 2005. - №5.5,6.
3. Boshlang`ich ta`lim bo`yicha Yangi tahrirdagi o`quv dasturi // «Boshlang`ich ta`lim». Jurnal. Toshkent, 2005. - № 5.
4. A. Zunnunov va boshqalar. Adabiyot o`qitish metodikasi. Toshkent «O`qituvchi», 1992.
5. A.G`ulomov. ona tili o`qitish prinsiplari va metodlari. Toshkent. «O`qituvchi», 1992.